

**BO'LAJAK MUTAXASSISNING ASOSIY  
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH****Rahimboyev Musobek***Falsafa fanlari doktori**Toshkent davlat iqtisodiyot**universiteti, To'rtko'l fakulteti***Masharipova Dinora Xudaybergan qizi***1-bosqich 252-guruh talabasi,**Buxg'alteriya hisobi yo'nalishi**Toshkent davlat iqtisodiyot**universiteti, To'rtko'l fakulteti*

**Anotatsiya:** Mazkur ilmiy maqola bo'lajak mutaxassislarining zamonaviy mehnat bozori talablariga mos ravishda shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy kompetensiyalarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida kasbiy bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda, shaxsiy rivojlanishga xizmat qiluvchi kommunikativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish hamda raqamli savodxonlik kabi universal ko'nikmalar keng yoritib beriladi. Shuningdek, maqolada ta'lim tizimida uchrayotgan dolzarb muammolar, ularning kelib chiqish omillari va ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlari tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Mualliflar tomonidan innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni rivojlantirish orqali yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalalari qamrab olinadi.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, kasbiy rivojlanish, soft skills, hard skills, tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, innovatsion ta'lim, mehnat bozori.

**Annotation:** This scientific article is devoted to the comprehensive analysis of key competencies that play a crucial role in shaping future specialists in accordance with the demands of the modern labor market. The study covers not only professional knowledge and technical skills, but also highlights essential universal competencies such as communication, critical thinking, problem-solving, and digital literacy. Furthermore, the article examines current challenges within the education system, identifies their underlying causes, and explores effective mechanisms for overcoming them. The authors also address the importance of implementing innovative pedagogical technologies, strengthening practice-oriented education, and developing a competency-based approach in order to prepare highly qualified and competitive professionals.

**Keywords:** competency, professional development, soft skills, hard skills, critical thinking, digital literacy, innovative education, labor market.

**Аннотация:** Данная научная статья посвящена всестороннему анализу ключевых компетенций, играющих важную роль в формировании будущих специалистов в условиях современных требований рынка труда. В рамках исследования рассматриваются не только профессиональные знания и навыки, но и универсальные компетенции, такие как коммуникативность, критическое мышление, способность к решению проблем и цифровая грамотность. Кроме того, в статье анализируются актуальные проблемы системы образования, выявляются причины их возникновения и предлагаются эффективные пути их решения. Особое внимание уделяется внедрению инновационных педагогических технологий, развитию практико-ориентированного обучения и компетентностного подхода как основы подготовки конкурентоспособных специалистов.

**Ключевые слова:** компетенции, профессиональное развитие, soft skills, hard skills, критическое мышление, цифровая грамотность, инновационное образование, рынок труда.

**KIRISH:** Hozirgi globallashuv va jadallik bilan rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida inson faoliyatining barcha sohalari ilm-fan yutuqlariga tayangan holda takomillashib bormoqda. Ilmiy kashfiyotlar va innovatsion texnologiyalar taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan bir davrda, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni ham tubdan yangicha yondashuvni talab etmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda mutaxassisning qadri uning nafaqat nazariy bilimlari, balki ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish darajasi, kreativ fikrlashi va muammolarni hal etish qobiliyati bilan belgilanadi.

Jahon tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ilg'or oliy ta'lim muassasalari "Universitet – 4.0" konsepsiyasi asosida faoliyat yuritmoqda. Mazkur konsepsiya ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayangan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarini innovatsion rivojlanish markaziga aylantirmoqda. Bunday universitetlar nafaqat bilim beruvchi maskan, balki ilmiy kashfiyotlar va texnologik yangiliklarni yaratish hamda amaliyotga joriy etish orqali jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda mehnat bozori mutaxassislardan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviylik va raqamli savodxonlik kabi universal ko'nikmalarni ham talab qilmoqda.

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga

qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yil 8-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” oliy ta’lim sohasini tubdan yangilash, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash hamda ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Bugungi kunda mazkur hujjatda belgilangan maqsad va vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublikamizda oliy ta’lim bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshib, talabalar sonining keskin ko‘payishi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 200 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari faoliyat yuritib, ularda yoshlarning katta qismi tahsil olmoqda. Biroq, ta’lim qamrovining kengayishi bilan bir qatorda, uning sifati va samaradorligini ta’minlash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xususan, mutaxassislar tayyorlash tizimining real mehnat bozori talablariga to‘liq mos emasligi, nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasida uzilish mavjudligi kabi muammolar mavjudligi qayd etilmoqda.

Davlat darajasida bu muammolarga alohida e’tibor qaratilib, oliy ta’lim bitiruvchilarining bandligini ta’minlash, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim jarayoniga ish beruvchilarni jalb etish, talabalarning bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda baholash, bitiruv ishlarini real loyihalar asosida tashkil etish kabi yondashuvlar joriy etilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ularni mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta’lim dasturlarini takomillashtirish, ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib kompetensiyalarni qayta belgilash, fanlar katalogi va o‘quv dasturlarini yangilash, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalar ham ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish orqali esa ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish hamda kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratilmoqda.

Ilg‘or oliy ta’lim muassasalari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak mutaxassislarning ko‘nikmalarini shakllantirishda maxsus o‘quv modullari va interaktiv metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Professional rivojlanish”, “Personal development” kabi fanlar orqali talabalar nafaqat kasbiy bilimlarni, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlash, samarali muloqot qilish, muzokara olib borish, jamoada ishlash kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim omil hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — bo‘lajak mutaxassislarni faqat bilimli emas, balki mustaqil fikrlay

oladigan, innovatsion yondashuvga ega, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan hamda raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonida kasbiy va universal ko'nikmalarni uyg'un holda shakllantirishni talab etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bo'lajak mutaxassislarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada aynan ushbu jarayonning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llari kompleks yondashuv asosida yoritib beriladi.

### ASOSIY QISM:

Bo'lajak mutaxassislarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni chuqur o'rganish maqsadida nazariy tahlil bilan bir qatorda empirik yondashuvlardan — suhbat (interview), kuzatuv va taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida talabalar, professor-o'qituvchilar hamda ish beruvchi tashkilot vakillari bilan suhbatlar o'tkazildi.

O'tkazilgan suhbatlar natijasiga ko'ra, talabalar asosan nazariy bilimlarga ega ekanliklarini, biroq ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelayotganliklarini ta'kidladilar. Ish beruvchilar esa yosh mutaxassislarda eng ko'p uchraydigan muammo sifatida amaliy tajriba yetishmasligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining sustligi hamda jamoada ishlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligini qayd etdilar. Bu holat ta'lim jarayonida amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar ikki asosiy guruhga bo'linadi: kasbiy ko'nikmalar (hard skills) va universal ko'nikmalar (soft skills). Hard skills mutaxassisning sohasiga oid bilim va texnik malakalarni o'z ichiga olsa, soft skills shaxsning muloqot, tanqidiy fikrlash, muammo yechish va liderlik qobiliyatlarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki turdagi ko'nikmalar uyg'unligi bo'lmagan taqdirda mutaxassisning mehnat bozorida to'liq raqobatbardosh bo'la olmasligini ko'rsatdi.

Ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik metodlar ham muhim rol o'ynaydi. Intervyu va kuzatuv natijalariga ko'ra, talabalar quyidagi metodlarni eng samarali deb baholadilar: interaktiv darslar, case-study (real vaziyatlarni tahlil qilish), loyiha asosida o'qitish hamda amaliyot va stajirovkalar. Ayniqsa, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilinib, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy mehnat bozori raqamli

savodxonlikka ega mutaxassislarni talab qilayotgani sababli, ta'lim muassasalarida elektron platformalar, simulyatsion dasturlar va onlayn resurslardan keng foydalanish zarur. Bu esa talabalarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning texnologik moslashuvchanligini ham oshiradi.

Tadqiqot davomida yana bir muhim jihat aniqlandiki, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilish mavjudligi ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, dual ta'lim tizimini keng joriy etish hamda talabalarni real ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi. Bundan tashqari, zamonaviy mutaxassisni shakllantirishda motivatsiya omili ham muhim o'rin tutadi. Talabanning o'z ustida ishlashi, mustaqil bilim olishga intilishi va innovatsion fikrlashga moyilligi uning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor bo'lishi lozim.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, bo'lajak mutaxassislarning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. O'tkazilgan tahlil va suhbatlar natijasida talabalarda nazariy bilimlar mavjud bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Kasbiy va universal ko'nikmalarning uyg'un rivojlanishi mutaxassisning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bois, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, amaliyot va innovatsion yondashuvlarni keng qo'llash muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, ta'lim va amaliyot integratsiyasi orqali zamonaviy talablarga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Drucker, P. F. The Essential Drucker. HarperCollins Publishers, New York, 2001.
2. In-academy.uz. Ilmiy maqolalar va ta'limiy materiallar bazasi. 2024.
3. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. Toshkent, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida" PF-5847-son Farmon. 2019-yil, 8-oktabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Oliy ta'lim muassasalari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. <https://stat.edu.uz>
7. Robles, M. M. (2012). "Executive Perceptions of the Top 10 Soft Skills Needed in Today's Workplace." Business Communication Quarterly, 75(4), 453–465.

8. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. O‘quv-uslubiy majmualar va ilmiy ishlanmalar to‘plami. Toshkent, 2024.
9. World Economic Forum. The Future of Jobs Report 2023. Geneva, 2023.
10. Yorke, M. Employability in Higher Education: What it is – What it is not. Higher Education Academy, 2006.

